

## JINOYATLARNI TERGOVGA TEGISHLILIGINING TURLARI HAMDA BELGILARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*IIV Akademiyasi 319- guruh kursanti  
Ahmadov Muhammad Ali Erkin o'g'li*

*“Oshkoralik va so'z erkinligi bu - davr talabi,  
O'zbekistondagi islohotlarning talabi” Sh.M.Mirziyoyev*

**Annotatsiya:** Maqolada jinoyat-protsessida tergovga tegishlilik masalalari, tergovga tegishlilikni tergov o'tkazishdagi ahamiyati, tergovga tegishlilik turlari va belgilarining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek ushbu masalalarning milliy qonunchilikdagi ba'zi kamchiliklari hamda xalqaro tajriba bilanqiyosiy tahlili o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** tergov, dastlabki tergov, surishtiruv, tegishlilik, xududiylik, prokuror, tergovga tegishlilik.

Bugungi kunda O'zbekistonda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy munosabatlarning jadal rivojlanib borayotganligi, mamlakatimizdagi qonunchilikni ham muntazam ravishda o'zgartirishni talab qilmoqda. Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi inson hayoti, sog'lig'i, erkinligi, sha'ni va qadr qimmatini, shaxsiy daxlsizligi, fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va shaxsiy huquqlari O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi bilan himoya qilinadi. Darhaqiqat inson hayoti va sog'lig'i eng oliy ne'mat hisoblanadi va har bir huquqiy davlat uni himoya qilishni asosiy vazifasi deb bilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasida har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan bo'lsa, 26-moddasida jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmasligi va sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab berilishi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi takidlangan. Jinoyatlarni tez va to'liq fosh etish, aybdorlarni aniqlash va fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash tergov organlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizda tergov sifatini yaxshilash, jinoyat protsessida shaxs huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish hamda ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar tergovini soddalashtirish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan 2017 yil 6 sentyabrdagi «Surishtiruv instituti

takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonunga asosan Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirishlar kiritildi hamda jinoyat ishini tergov qilish surishtiruv yoki dastlabki tergov shaklida amalga oshirilishi belgilandi.

Avvalo surishtiruv va dastlabki tergov tushunchalarini bir-biridan farqlab olishimiz lozim. Surishtiruv tergovning soddalashtirilgan shakli deb tushunishimiz mumkin. Bugungi kunda ichki ishlar organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Majburiy ijro byurosi, Davlat bojxona qo'mitasi, Milliy gvardiya surishtiruvchilari surishtiruvni amalga oshirib kelmoqdalar. Dastlabki tergovni prokuratura, ichki ishlar organlari va Davlat xavfsizlik xizmati tergovchilari olib boradi. Surishtiruv va tergov harakatlarinig muddatlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, jinoyatprotsessual qonunchiligi talablariga asosan surishtiruv jinoyat ishi qo'zg'atilgan kundan boshlab bir oy ichida tamomlanishi kerak. Qo'shimcha surishtiruv muddati esa o'n kun etib belgilangan. Dastlabki tergov esa jinoyat ishi qo'zg'atilgan kundan boshlab uchoyichidatugatilishishart. Dastlabki tergov muddati qonunchilikda belgilangan tartibda uzog'i bilan yetti oygacha uzaytirilishi mumkin. Yuqoridagi har bir organning faoliyati va vazifalaridan kelib chiqqan holda Jinoyat-protsessual kodeksida tergovga tegishlilikka oid normalar mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, JPKning 345hamda381<sup>2</sup>-moddalarida jinoyat ishining tergovga tegishliligiga oid munosabatlar tartibga solingan. Tergovga tegishlilik deganda sodir etilgan jinoyat aynan qaysi tergov organi tergov o'tkazishi kerakligini bildiradi. Tergovga tegishlilikni tartibga solishda jinoyat kodeksining mahsus qismida belgilangan barcha jinoyatlar aks etgan bo'lishi lozim, aks holda muayyan jinoyat sodir etilganda u bo'yicha qaysi organ tergov o'tkazishi lozimligi haqida savollar paydo bo'lishi va tergov organlari o'rtasida tushunmovchiliklar kelib chiqishi, buning natijasida esa taraflar ovoragarchiligi kelib chiqishi mumkin. Jinoyatkodeksiningmaxsusqismidagimoddalarningtergovgategishliligitahlilqilinganda , 2021 yilgaqadarbirqatormoddalarningtergovgategishliligibelgilanmaganedi. Buningoqibatidaqonunchilikdabo'shliqvujudgakelganliginiko'rishimizmumkin. Masalan, JKning 125<sup>1</sup>-moddasi (Nikohyoshito'g'risidagiqonunhujjatlarinibuzish), 216<sup>1</sup>-moddasi (G'ayriqonuniyjamoatbirlashmalarivadiniytashkilotlarfaoliyatidaqatnashishgaundash) va 2162-moddasida (Diniytashkilotlarto'g'risidagiqonunhujjatlarinibuzish) nazardatutilganjinoyatningqaysisurishtiruvorganigategishliligiJPKning 3812-moddasidabelgilaberilmagan. BundantashqariJKning 168-moddasining 4-qismi (Firibgarlik), 2301-moddasi (Dalillarnisoxtalashtirish (qalbakilashtirish) va 2302-moddasida (Tezkor-qidiruvfaoliyatinatijalarinisoxtalashtirish (qalbakilashtirish) belgilanganjinoyatlar

2021 yilga qadar qaysidastlabki tergov organiga tegishliligi JPKning 345-moddasida belgilmagan edi.

Buning oqibatida qonunchilik dabo' shliqvujudgakelgan vatervgov organlar o'rtasida sasalorlikka olib kelgan. Bunday bo' shliqlar 2021 yilning 25 avgust, 07 dekabr' va 2022 yil 16

fevraldagijinoiat protsessual kodeksi gakiritilgan o'zgarishlarnatijasidabartaraf qilindi. S Huningdek, JPKning 345-moddasida jinoiat ishini bir dastlabki tergov organidan boshqasiga o'tkazish tartibi belgilangan bo'lib, Bosh prokuror yoki uning o'rinbosarlari tergovning har tomonlama, to'liq va xolisona olib borilishini ta'minlash maqsadida jinoiat ishini, tergovga tegishlilik qoidalaridan qat'i nazar, quyidagi hollarda asoslantirilgan qarorga binoan bir dastlabki tergov organidan boshqasiga o'tkazishga haqli ekanligi belgilangan:

1) agar jinoiat ishining tergovi tegishli bo'lgan organ jinoiatni hisobga olishdan ilgari yashirgan bo'lsa;

2) agar jinoiat ishining tergovi tegishli bo'lgan organning rahbari yoki rahbarning yaqin qarindoshi ish yuzasidan jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi yoxud ayblanuvchi, fuqaroviy da'vogar yoki fuqaroviy javobgar deb topilgan bo'lsa;

3) aybsizligi ayon bo'lgan shaxs ayblanuvchi tariqasida jalb etilganda yoki qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida oldindan bila turib qonunga xilof ravishda iltimosnoma qo'zg'atilganda; 4) dastlabki tergovni olib borishda qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala turlari qo'llanilganda; 5) tergovning natijalariga va ish bo'yicha qonuniy qaror qabul qilinishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tarzda ushbu kodeks talablari buzilganda yo'l qo'yilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 avgustdagi «Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish to'g'risida»gi farmoni kuchga kirguniga qadar, Jinoiat ishini bir tergov organidan boshqasiga o'tkazish mexanizimini amaliyotda qanday ishlaganligini taxlil qiladigan bo'lsak, bu ko'p vaqtni talab etadigan mexanizm asosida amalga oshirilib kelingan. Xususan, jinoiat ishini boshqa tergov organiga o'tkazish yuzasidan tuman yoki shahar prokurorining iltimosnomasi viloyat va unga tenglashtirilgan prokuraturalarga yuborilar edi. Prokuraturaning tegishli tarmoq xodimi tomonidan mazkur jinoiat ishi o'rganib chiqilib, viloyat prokurorining sohaviy o'rinbosariga axborot berilganidan so'ng viloyat prokurorining roziligi bilan jinoiat ishi Bosh prokuraturaga yuborilgan. Bosh prokuraturaning tegishli tarmoq xodimi ham jinoiat ishini o'rganib chiqib, Bosh prokuror yoki uning o'rinbosariga axborot bergan. Shundan so'ng jinoiat ishi bir tergov organidan boshqasiga Bosh prokuror yoki uning o'rinbosarining qaroriga asosan o'tkazilgan. Ushbu harakatlarni amalga oshirish bir necha kun talab qilishini inobatga oladigan bo'lsak, bu jinoiat yuzasidan kechiktirib bo'lmas tergov

harakatlarini o'z vaqtida o'tkazish hamda tergov organining jinoyatni tezda fosh etish imkoniyatini cheklagan deyishimiz mumkin. Yuqoridagi muammo va qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 avgustdagi «Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish to'g'risida»gi farmonida Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan hollarda jinoyat ishi faqat Bosh prokuror va uning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan bir surishtiruv yoki dastlabki tergov organidan boshqasiga o'tkazilishi mumkinligini nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqish belgilandi. Ushbu qonunning qabul qilinishi jinoyatlarni tez va to'liq fosh qilishga, qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etishga, jinoyat protsessida shaxs huquqlari himoyasi kafolatlarini mustahkamlashga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Hozirgi kunda amaliyotda eng ko'p uchratish mumkin bo'lgan muammolardan biri yuqorida sanab o'tilgan vakolatli shaxslar tomonidan bir surishtiruv yoki dastlabki tergov organidan boshqasiga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinganligi haqida gumon qilinuvchi va ayblanuvchining himoyachisi, gumon qilinuvchi va ayblanuvchining yaqin qarindoshlari xabarsiz qolib ketayotganliklaridir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi kabi holatlarni oldini olish uchun, amaldagi jinoyat protsessual qonunchiligiga o'zgartirish kiritish taklif qilinadi. Taklifimiz shundan iboratki, JPKning 345-moddasiga “Bosh prokuror va uning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan bir surishtiruv yoki dastlabki tergov organidan boshqasiga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilganida, ertasi kundan kechiktirmagan holda gumon qilinuvchi va ayblanuvchining himoyachisini va uning yaqin qarindoshlari yozma ravishda xabardor qilishi shart” degan normani kiritish kerak. Shu yo'l bilan dastlabki tergovga tegishlilik bo'yicha kelib chiqishi mumkin bo'lgan sansalorliklarni oldini olish mumkin bo'ladi.:

#### ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. –Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. –Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi kafedra boshlig'i, yu.f.f.d. Xurshid Karimov: “ TERGOVGA OID NORMALAR TAKOMILLASHTIRILADI “. -16.12.2020.
4. Jinoyat-protsessual xuquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. // -Toshkent:TDYU nashriyoti, 2018. -406 bet.7